

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI



2025 yil

Ro'yxatga olingan № SH-60810100-13.27

**FAKULTET ORTOPEDIK STOMATOLOGIYA 1
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	900000	-	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910000	-	Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi:	60910100	-	Stomatologiya (yo'nalishlar bo'yicha)

Toshkent - 2025

Fan/modul kodi FOSL. 15606	O'quv yili 2025-2026	Semestr 5-6	Kreditlar 6,0 (3,0 kredit 5 semestrda, kredit 6 semestrda)
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim turi O'zbek/rus		Xaftadagi dars soatlari 3
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Fakultet ortopedik stomatologiya 1	90 (45 soat 5 semestrda 45 soat 6 semestrda)	90 (45 soat 5 semestrda 45 soat 6 semestrda)	180

1. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarni klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan uslublarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali, ya'ni tish qattiq to'qima va tish qatorlari nuqsonlarining kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmlari, klinikalari, tashxis va qiyosiy tashxislari va davolash usullari hamda ularni oldini olish chora-tadbirlarini o'rgata borish va shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - faning bo'limlariga tegishli bilimlar bilan talabalarni bosqichma-bosqich tanishtira borish, o'rgata borish va ko'nikmalarni hosil qilish; yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etib, talabani klinik fikrlash qobiliyatini o'stirish va bilimni saqlash darajasini oshirish; talabani klinik fikrlash qobiliyatini o'stirishga qaratilgan standartga mos amaliy ko'nikmalarni assistent-talaba, talaba-fantom uslubida avtomatizm darajasiga etkazish; fan sohasiga taalluqli tish qattiq to'qima va tish qatorlari nuqsonlarining tashxisi va qiyosiy tashxisi bosqichlarini, davolash va profilaktika usullarining zaruriy jihatlari to'g'risida ma'lumot berish.

Fanning yetakchi TOR-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi:

Ortopedik stomatologiya fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Farabi universiteti (Qozog'iston)ning Analitik kimyo fanining o'quvdasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 163-o'rinni egallagan bo'lib, Stomatologiya sohasi bo'yichayuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

5-semestr.

1 - mavzu. Tish tojining qisman emirilishi. Qattiq to'qimalarning shikastlanish tasnifi. Etiologiyasi, patogenez, klinik ko'rinishi. Tish nuqsonlarining xalqaro tasnifi, bo'shliqlar joylashgan joyning harf bilan belgilash. Blek bo'yicha bo'shliqlar tasnifi. Melikevichga ko'ra TChYuPI. Tishlarning anatomik shaklini tiklaydigan protez turlari.

2 - mavzu. Tishlarning toj kismi emirilganda tekshirish usullari. Tij toj kismining nuksnini ortopedik tiklash uchun ogiz bushligini tayyorlash. Qistirmalar tasnifi. Vinirlar. Qistirmalar va vinirlar uchun charxlash mezonlari, klinik-laborator bosqichlarini uziga xos tomonlari.

3 - mavzu. Tish toj qismidagi nuqsonni sun'iy qoplamalar bilan davolashga bo'lgan ko'rsatmalar. Sun'iy qoplama turlari. Sun'iy qoplamalarga bo'lgan klinik talablar. Turli koplamlar uchun tishlarni kattiq to'qimasini charxlash qoidalari. Turli xil koplamlarning klinik-laborator bosqichlari. Zamonaviy sunniy qoplamalarni tayyorlashda sun'iy intellektning ahamiyati. Sunniy qoplamalarni tayyorlashda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar, ulardan kelib chiqadigan asoratlar xamda ularni bartaraf etish.

4 - mavzu. Tishning butun toj qismi yo'qotilganining klinikasi va bunda ortopedik davolashga ko'rsatmalar. O'zakli tish protezlarning tasnifi. Ildizlarning milk yon sohasini va kanalini tayyorlash, ildizlarga bulgan talablar. Bir ildizli xamda parallel va noparallel kanalli ko'p ildizli tishlarning toj qismining to'liq emirilishida ishlatiladigan tish protezlari. Kopeykin va Bekmetov buyicha uzakli tish, «qistirmaning ichida o'zakli qistirma», «asosiy yo'naltiruvchi kanal bilan uzakli kistirma» va boshqalar.

5 - mavzu. Sunniy qoplamalarni, qistirmalarni, vinirlarni va o'zakli tish protezlarni tayyorlashda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar, ulardan kelib chiqadigan asoratlar xamda ularni bartaraf etish.

6-semestr.

1 - mavzu. Tish katorlarining qisman nuqsonini tasniflari va uning klinik holati. Tish qatorini mustaqil ishlaydigan tishlar guruhiga bo'linalishi. Parodontning funksional yuklanilishi. Tish qatorlarining deformatsiyasi. Estetik normalami, gapirish va chaynov funksiyalarni buzilishi. Og'iz bo'shlig'i tishlarining qisman nuqsonini protezlashga mahsus tayyorlash (terapevtik, xirurgik, ortopedik, ortodontik). Tish qatorlarining ikkilamchi deformatsiyasidagi okklyuzion buzilishlarini to'g'rilash usullari.

2 – mavzu. Ko'priksimon protezlarni tayyorlash uchun tayanch tishlarni tanlash. Odontoparodontogramma. Tashxisni shakllantirish. Ko'priksimon protezlarni tayanch qismi va oraliq qismi (tanasi) turlarini aniqlash.

3 – mavzu. Tish qatorlarining qisman nuqsonlarining turli guruxlarida markaziy okklyuziyani aniqlash usullari. Yuz yoyi.

4 – mavzu. Kavsharlangan va kuyma ko'priksimon protezlarni tayyorlanishining klinik-laborator bosqichlari. Parallelometriya tushunchasi. Estetik kupriksimon protezlar. Dioksid-tsirkon, shishakeramik va ombinirlangan kupriksimon protezlar. Kupriksimon protezlarni topshirish. Kupriksimon protezlarni tayyorlashda uchraydigan hatolar va asoratlar, ularni bartaraf etish. Yechilmaydigan protezlarni qotirish uchun ichki suyak implantatlarni qo'llanilishi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

5-semestr

1-mavzu. Tish toj qismining nuqsonlari, ularning tasnifi. Melikevich indeksi (TChYuPI). Qistirmalar turlari. Chaynash bosimi kuchlarining ta'sirini hisobga olgan holda qistirma uchun bo'shliqlarni shakllantirish asoslari. Tayyorlash usullari va ketma-ketligi.

2-mavzu. Metall qistirmalarni ishlab chiqarishning klinik va laborator bosqichlari. Qistirmalar tayyorlash bevosita va bilvosita usullari. Ikkala usulning qiyosiy xususiyatlari.

3-mavzu. Chinni, nur o'tkazmaydigan kompozit xom ashyolardan, plastmassadan, shuningdek kombinirlangan qistirmalarni tayyorlashning klinik va laboratoriya bosqichlari. Estetik qistirmalarni plombalar bilan taqqoslash. Vinirlarni tayyorlash xususiyatlari, ishlab chiqarish bosqichlari. Ishlatiladigan xomashyolar.

4-mavzu. Tish toj qismidagi nuqsonni sun'iy qoplamalar bilan davolashga bo'lgan ko'rsatmalar. Sun'iy qoplama turlari. Sun'iy qoplamalarga bo'lgan klinik talablar. Sun'iy qoplamalar tayyorlashning umumiy klinik-laboratoriya bosqichlari.

5-mavzu. Metalldan ezib tayyorlanadigan qoplamalarga bo'lgan ko'rsatma va qarshiko'rsatmalar. Metalldan ezib tayyorlash (shtampovka usulida) usuli bilan tayyorlangan sun'iy qoplama uchun tishni to'g'ri charxlash mezonlari. Ezib tayyorlangan qoplamalarning klinik-laborator bosqichlari. Qoplamalarni ezib tayyorlash (tashki, aralash shtampovka) turlari. Laborator dars.

6-mavzu. Yaxlit quyma qoplamalarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari. Yaxlit quyma qoplamalar uchun tishlarni charxlash. Mummi metallga almashtirish.

7-mavzu. Qoliplarni olishning uziga hos tomonlari. Milk burmasining morfologiyasi, «milk chuntagi» tushunchasi. Milk burmasini «ochish» usullari, shakllangan zinapoyani ochirish. Ikki kavatli qolipni olish usullari. Metall-keramika va metall-plastmassa uchun charxlashning uziga hos tomonlari. Zinapoya shakillari, uning milka nisbatan joylashishi. Kombinirlangan qoplamalar uchun zinapoya shakllantirish.

8-mavzu. Chinni qoplamalar uchun tishlarni charxlash. Chinni kavatlarini surish koidalari. Press-keramikadan qoplarni tayyorlashning laborator bosqichlarining xususiyatlari. Dioksid-tsirkon, plastmassa qoplamalarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari. Dioksid-tsirkon qoplarni tayyorlashda sun'iy intellektning ahamiyati. Estetik qoplamalar uchun rang tanlash xususiyatlari. Laborator dars.

9-mavzu. Qoplamalarni og'izda charxlangan tabiiy tishlarga o'lchab ko'rish. To'g'ri tayyorlangan qoplamalarga bo'lgan talablar. Metall va estetik qoplamalarga oxirgi ishlov berish. Qoplamalarni pardoqlash sifatini baholash. Metall va boshqa turdagi qoplamalarni sementga qotirish va bemorga beriladigan nasixat. Qistirma va qoplamalarni tayyorlash klinik-laborator bosqichlarida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar xamda ulardan kelib chiqadigan asoratlar.

10-mavzu. Tish toj qismi butunlay yukotilganda ogiz boshligining klinikasi, protezlash turlari. Ildizga bo'lgan talablar. O'zakli konstruksiyalar tasnifi. Cho'g'irli o'zakli konstruksiyalar bilan tiklash. Kopeykin bo'yicha o'zakli tishlarni bir va ikki ildizli parallel kanallarga tayyorlanishining usuli. O'zakli tishning konstruksiyasini tayyorlanishining bevosita va bilvosita usuli. Laborator dars.

11-mavzu. Noparallel kanalli ko'p ildizli tishlarga o'zakli konstruksiyalarini tayyorlanishining usullari: Bekmetov buyicha o'zakli tish, «qistirmaning ichida o'zakli qistirma», «asosiy yo'naltiruvchi kanal bilan o'zakli tish» va boshqalar. Laborator dars.

12-mavzu. Standart o'zaklarning turi. Noparallel kanalli ko'p ildizli tishlarga standart anker o'zaklar termasi va kompozitlar yordamida chug'irli o'zak konstruksiyalarini tayyorlashning bevosita usuli. O'zakli konstruksiyalarini tayyorlash klinik-laborator bosqichlarida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar xamda ulardan kelib chiqadigan asoratlar.

6-semestr.

1-mavzu. Tish qatorlarining qisman nuqsonini tasniflari va uning klinik holati. Tish qatorini mustaqil ishlaydigan tishlar guruhiga bo'linalishi. Funktsional va nofunktsional tishlar guruhlari paydo bo'lishi. Parodontning funktsional yuklanilishi. Tish qatorlarining deformatsiyasi. Estetik normalarni, gapirish va chaynov funktsiyalarni buzilishi. Tishlarning yuqotilishi bilan bog'liq chakka-pastki jag' bo'g'imining o'zgarilishi.

2-mavzu. Og'iz bo'shlig'i tishlarining qisman nuqsonini protezlashga mahsus tayyorlash (terapevtik, xirurgik, ortopedik, ortodontik). Okklyuzion yuzani alveolararo balandlikni ko'tarish hisobiga tekkiqlash. Okklyuzion yuzani tishlarni kaltalatish hisobiga tekkiqlash. Tish qatorlarining deformatsiyasidagi okklyuzion buzilishlarini to'g'rilash usullari.

3-mavzu. Ko'priksimon protezlarni tayyorlash uchun tayanch tishlarni tanlash. Ko'priksimon protezlar bilan davolash davrida tayanch tishlar sonini aniqlashning klinik-teoretik xisoboti (7 tamoyil). Odontoparodontogramma.

4-mavzu. Markaziy okklyuziyani aniqlash. Tishlarning qisman nuqsonining 1-3 guruhlarida markaziy okklyuziyani aniqlash va qolgan tishlarning markaziy okklyuziyasining turli moslamalarida shifokorning taktikasi.

5-mavzu. Kavsharlangan ko'priksimon protezlarni tayyorlanishining klinik-laborator bosqichlari. Ko'priksimon protezlarning tanasining turlari va ularning qo'llanilishining uziga hos tomonlari.

6-mavzu. Kombinirlangan modellarni tayyorlash usullari. 3-D printer yordamida medellarni bosib chiqarish.

7-mavzu. Tishlarning qisman nuqsonini quyma ko'priksimon protezlar bilan ortopedik davolash. Parallelometriya tushunchasi. Quyma ko'priksimon protezlarni tayyorlashning klinik-laborator bosqichlari.

8-mavzu. Kombinirlangan ko'priksimon protezlarni (metall-chinni, metall-plastmassa, dioksid-tsirkon-chinni) tayyorlanishining klinik-laborator bosqichlari. Chinni massasini metall karkasga bosqichma-bosqich surtish. Plastmassani metall karkasiga bosish. Qoplovchi hom ashyoning rangini tanlash.

9-mavzu. Press-keramik, dioksid-tsirkon va kompozit ko'priksimon protezlarga ko'rsatmalar, klinik-laborator bosqichlarining uziga xos xususiyatlari. Dioksid-tsirkon ko'priksimon protezlarni tayyorlashda sun'iy intellektning roli. Yakuniy laborator bosqich rangni tug'irlash, glazurlash, ishlov berish va mahkamlash. Ko'priksimon protezlarni sementga qotirish.

10-mavzu. Implantatsiya turlari. Yechilmaydigan protezlarni qotirish uchun ichki suyak implantatlarni qo'llanilishi. Implantant turlari, tasniflari, tarkibiy qismlari.

11-mavzu. Dental implantatlarda tayanib turadigan ko'priksimon protezlarning klinik-laborator bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari. Dental implantatlardan qolip olish usullari.

12-mavzu. Ko'priksimon protezlarni topshirish. Ko'priksimon protezlarni yasashda uchraydigan hato (texnik, klinik) va asoratlar, ularni bartaraf etish. Okklyuzion munosabatlarni korreksiyalash. Profilaktika usullari.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir

akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

5-semestr.

1. Melikevich indeksini aniqlash usullari. Tish nuqsonlarini kompozitlar va qistirmalar yordamida tiklanishini qiyosiy baholash.
2. Qistirmani mumdan modelda shakillantirish.
3. Vinirlar va luminirlar. Ularning tavsifi, tasnifi va qo'llanilishi. Vinirlar uchun tishlarni charhlashni o'ziga hosligi.
4. Sun'iy qoplamalarni turlari va ularni tayyorlash uchun qo'llaniladigan hom-ashyolarning qiyosiy xususiyatlari.
5. Quyma va ezib tayyorlangan metal sun'iy qoplamalarni qiyosiy xususiyatlari va klinik-laborator bosqichlarini farqi.
6. Sun'iy qoplamalarni mumdan modelda shakillantirish. Sun'iy qoplamalar uchun tishlarni charxlashning usullari va mezonlari. Tish kattiq to'qimasini charxlashga parodont toqimasiga ta'siri.
7. Milk burmasining morfologiyasi, «milk chuntagi», «milk egati» tushunchalari. Retraksiya usullari, Tishning buyin sohasida zinapoya xosil qilish usullari. Zinapoya turlari.
8. CAD-CAM texnologiyasi, uni rivojlanishi, an'anaviy usuliga nisbatan afzalligi va kamchiligi.
9. Qistirma va qoplamalarni tayyorlash klinik-laborator bosqichlarida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklar xamda ulardan kelib chiqadigan asoratlar. Ularni oldini olish.
10. Tish toj qismini qisman zararlantirishining tasniflari. Uning etiologiyasi, patogenez va klinik ko'rinishi. Frontal kurak va chaynov tishlarning funksional xususiyatlari.
11. Bir va ikki ildizli kanallarga o'zakli konstruksiyalarni tayyorlanishining usullari.
12. Standart va individual o'zakli konstruksiyalarining qiyosiy xususiyatlari. Bemorni ortopedik stomatologik muolajalar utkazish oldidan psixoterapevtik tayyorlash.

6- semestr.

1. Tishlarning yuqotilishi bilan bog'liq estetik normalarni va funksiyalarni buzilishi hamda chakka-pastki jag' bo'g'imining parodontning funksional o'zgarilishi.

2. Og'ir bo'shlig'i tish qatorlarining qisman nuqsonini ko'priksimon protezlar yordamida tiklashga zamonaviy usullar yordamida mahsus tayyorlash.

3. Ko'priksimon protezlarni tarkibiy qismlari va tasniflari. Ko'priksimon protezlarni tayyorlash uchun tayanch tishlarni tanlash.

4. Yuzning pastki 1/3 qismini aniqlashning apparatur usullari. Yuz yoyi (litsevaya duga) bilan ishlash.

5. Ko'priksimon protezlarni tayyorlash uchun qo'llaniladigan hom-ashyolarning qiyosiy xususiyatlari.

6. Kombinirlangan modellarni tayyorlash usullari va ularni artikulyatorga o'rnatish qoidalarini.

7. Metall ko'priksimon protezlarni tayyorlashning usullari va ularni qiyosiy baholash. Parallelometr turlari.

8. Estetik protezlar uchun tishlarning rangini tanlash mezonlari va usullari.

9. Estetik ko'priksimon protezlarni tayyorlashning uziga xos xususiyatlari.

10. Yechilmaydigan protezlarni qotirish uchun ichki suyak implantatlarni qo'llanilishi. Dental implantant turlari, tasniflari, tarkibiy qismlari.

11. Dental implantatlarda tayanib turadigan ko'priksimon protezlarning klinik-laborator bosqichlarining o'ziga xos xususiyatlari. Dental implantatlardan qolip olish usullari.

12. Estetik tish protezlarni tayyorlashning yakuniy bosqichida okkluziyani korektsiyalash usullari.

"Fakultet ortopedik stomatologiya I" modul (fan) bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajer, mulyaj va simulyasion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish.

- ortopedik stomatologiya propedeutikasi moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

- talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- kompyuter, mulyaj, fantom va boshqa modellarda ishlash;

- bemorlar kurasiyasi, profilaktik ko'rik, kasallik tarixini yozish;

- stomatologik klinikalar va klinik o'quv bazalarda auditoriyadan tashqari tashkil etirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi

shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- fanni faol o'zlashtirishda talabalarni olimpiada, tanlovlar, ko'rgazma, anjumanlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

- tish sozlash laboratoriyasida urganilaetgan tish protezni laborator boskichlarini son va sifat jixatdan bajarish, modelda mumdan tishlarning toj qismini shakillantirish;

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyasion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar echish.

- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) echish.

- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

Mustaqil ishini bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o'quv qo'llanmalar, metodik qo'llanma va ko'rsatmalar, ma'lumotlar to'plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar, Internet tarmog'idagi tegishli ma'lumotlar, berilgan mavzu bo'yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

Talaba mustaqil ishini vazifalari quyidagilardan iborat:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;

- axborot manbalarini va manzillaridan samarali foydalanish;

- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;

- internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;

- berilgan topshiriqning rasional echimini belgilash;

- ma'lumotlar bazasini tahlil etish;

- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;

- topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;

- muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g'oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

V.Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari
Modul(fan) bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga
qo'yiladigan talablar:

5 semestr.

Talaba:

-suniy koplamlarining turlari;
- turli xil qoplamlar tayyorlashda qo'llaniladigan asosiy va yordamchi xom
ashyolar;

- qoplamlarni ezib tayyorlash (tashki, aralash shtampovka) turlari;
- turli koplamlarning klinik-laborator boskichlari;
- zinapoya shakllari, uning milka nisbatan joylashishi;
- to'g'ri tayyorlangan qoplamalarga bo'lgan talablar;
- milk burmasining morfologiyasi, «milk chuntagi» tushunchasi;
- ildizlarga bulgan talablar;
- o'zakli tish protezlarning tasnifi;
- standart uzaklarning turi *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
- charxlash uchun ishlatiladigan asboblardan *bilan foydalana olishi*;
- milk burmasini «ochish» usullari (retraksiya);
- metall va boshqa turdagi qoplamlarni sementga qotirish;
- ildizlarning milk yon sohasini va kanalini tayyorlash *amaliy ko'nikmalariga*

ega bo'lishi kerak.

6 semestr.

Talaba:

- tish katorlarining qisman nuqsonini tasniflari;
- og'iz bo'shlig'i tishlarining qisman nuqsonini protezlashga mahsus tayyorlash;
- ko'priksimon protezlarni tarkibiy qismlari va tasniflari;
- paralelometriya tushunchasi;
- turli kupriksimon protezlarni klinik-laborator boskichlari;
- implantatsiya turlari *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
- kombinirlangan modellar *bilan foydalana olishi*;
- ko'priksimon protezlarni tayyorlash uchun tayanch tishlarni tanlash;
- tishlarning qisman nuqsonining 1-3 guruhlarida markaziy okklyuziyani
aniqlash;

-okklyuzion munosabatlarni korrektsiyalash *amaliy ko'nikmalariga ega bo'lishi*
kerak.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

Fakultet ortopedik stomatologiya moduli bo'yicha klinik amaliyotni o'tish
davrida talabalar quyidagi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan:

5-semestr.

- 1) Yuqori va pastki jag' tishlarining anatomik shakillarini mumdan yasash.
- 2) Alginat qolip ohrvchi massa yordamida qolip olish.
- 3) Silikon qolip massasida qolip olish.
- 4) Gipsli model quyish.
- 5) Tish qattiq to'qimasini ezib tayyorlangan qoplama qo'plamaga charxlash.
- 6) Tish qattiq to'qimasini metallchinni qoplama qo'plamaga charxlash.
- 7) Tish qattiq to'qimasini sirkoniy qoplama qo'plamaga charxlash.
- 8) Qoplamaning sementga fiksatsiya qila olish.
- 9) Ildiz kanalidan o'zakli konstruksiya uchun qolip olish.
- 10) O'zakli konstruksiyani ildiz kanalida fiksatsiya qila olish.

6-semestr

1. Kombinirlangan model quyish.
2. Odontoparodontogrammani tuldira olish.
3. Metall-chinni kupriksimon protezni metall karkasini ogiz boshligida
tekshira olish.
4. Milk cho'ntagini retraksiya qilish.
5. Implantatlardan ochik koshik usulida kolipni ola bilish.
6. Implantatlardan yopik koshik usulida kolipni ola bilish.
7. Kupriksimon protezni sementga fiksatsiya qila olish.
8. Tish katorlari nuksonlarining birinchi guruxida markaziy okklyuziyani
aniqlay olish.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar

Umumiy kompetensiyalar (UK)

- UK 1. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega
bo'lish;
- UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan
foydalanish qobiliyati;
- UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun
ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;
- UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan
foydalanishga tayyorlik;
- UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya
usullarini qo'llashga tayyorlik;
- UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini
qo'llashga tayyorlik;
- UKK 1. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar,
biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot
xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

Kasbiy kompetensiyalar (KK):

- UKK 9. I - V cinf sinf karioz bo' shliqlarini fantomlarda charxlash;
UKK 42. Ildiz kanalini kengaytirishda qo'llanuvchi qo'l asboblarini farqlash;
UKK 120. Shtamplangan koplamani tayyorlash;
UKK 121. Quyma qoplamani tayyorlash;
UKK 124. Bemorda okklyuziogramma usulini o'tkazish;
UKK 125. Ikki qavatli qolip olish usuli;
UKK 128. Quyma cho'girli o'zak konstruksiyasini bevosita usul bilan tayyorlash;
UKK 129. Sun'iy qoplamani qo'yib tekshirish usuli;
UKK 130. Ko'priksimon protezni sinchini o'lchash;
UKK 133. Ezib tayyorlangan qoplamalarni tayyorlash;
UKK 134. Quyma ko'priksimon protezni mumli kompozitsiyasini tayyorlash;
UKK 135. Quyma o'zak kompozitsiyasini mumdan tayyorlash;
UKK 137. Stomatologiyada noinekson og'riqsizlantirish;
UKK 138. Appikasion og'riqsizlantirish o'tkazish.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- Ma'ruzalar;
- Guruhlarda ishlash;
- Taqdimotlar tayyorlash;
- Individual loyixalar;
- Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish loyihalari;
- Rolli o'yinlar, munozaralar.

VII. Kreditlarni olish uchun talabalar:

Joriy, oraliq nazorat shakida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarishi, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savollarga javob berish va amaliy ko'nikmani bajarishlari lozim.

VIII. Nazorat turlarini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar.

JORIY NAZORAT (JN)

Joriy nazoratda talabani modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Fakultet ortopedik stomatologiya I moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, bemorlar bilan ishlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabani bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maximal ball 100, o'tish bali 60 ball.

Joriy nazorat uchun ajratilgan 4,0 kredit quyidagicha taqsimlanadi:

Sunniy koplamalarni tayyorlashning klinik-laborator boskichlari - 2 kredit;

O'zakli konstruksiyalarni tayyorlashning klinik-laborator boskichlari - 2 kredit.

Talaba har bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagandan keyingina yakuniy nazoratga kiritiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga qoldiriladi.

Baholash shkalasi	Bayoni
<i>Bajardi</i>	100%- kompetensiyani to'liq biladi, ketma-ketlik bo'yicha to'liq bajara oladi, mohiyatini to'liq tushuntirib bera oladi
<i>Bajarmadi</i>	50%- kompetensiyani bilmaydi, ketma-ketlik bo'yicha bajara olmaydi, mohiyatini tushuntirib bera olmaydi

Talaba mustaqil ishini baholash jadvali

O'qituvchi hamrohligidagi talaba mustaqil ishi (O'HTMI) (Office hours)- auditoriyada olib boriladigan kredit ta'lim tizimidagi mustaqil ta'limning bir turidir. 2 va 3 kurslarda auditoriyada talabalar uchun dars sifatida olib boriladi. Ikkita funksiyaga ega - maslahat va nazorat. **Maslahat funksiyasi:** Eksperimental ishchi o'quv rejasiga kiritilgan har bir fan bo'yicha talabalarning mustaqil ishlarida pedagogik jihatdan tegishli yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Talabaga dasturiy materialni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan ish usullarini tanlashga yordam beradi. Talaba uchun qiyin bo'lgan mavzuning izohini qayta

tinglash, o'quv materialini mustahkamlash bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarish imkoniyatini yaratadi.

• O'quv materialini chuqur o'rganishga yordam beradi. Odatda u talabalar oldindan tayyorlanishi kerak bo'lgan ma'lum bir mavzuga bag'ishlangan bo'ladi.

• Talabani o'zini ko'proq qiziqtirgan ilmiy yo'nalish bo'yicha mustaqil ishini chuqurlashtirishga hissa qo'shadi.

Nazorat funksiyasi:

• Talabalar bilimni joriy nazorat qilish. Xuddi shu darsda talaba dasturda nazarda tutilgan nazorat mavzularini va TMI uchun topshiriqlarni topshiradi

• Yuqori baho olish uchun kerakli (etishmayotgan) ballarni to'plashning real imkoniyati mavjud.

O'HTMI dars vaqtida jadval bo'yicha o'tkaziladi, lekin mustaqil ishlay oladigan talabalar uchun bu shart emas. Shunday ekan, har bir o'quvchining o'quv yutuqlarini doimiy nazorat qilib borish va ularni barcha talabalar darsni muvaffaqiyatli o'zlashtirib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tishlari uchun to'g'rilab borish o'qituvchining muhim vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

O'quv jurnalida O'HTMI alohida sahifada talabani mavjudligi yoki yo'qligi (+ yoki d/b) ko'rinishida qayd etiladi.

Talabani mustaqil ishi (TMI) kalendar-mavzuyi reja asosida amalga oshiriladi. Kafedrada mustaqil ish sifatida yuqorida TMI bo'limida tavsiflangan bir nechta turlari belgilangan. Har bir mavzu bo'yicha o'quvchilarga 12 tagacha vazifani tanlash imkoniyati taklif etiladi. Talabalar har bir kredit uchun 1 ta topshiriqni tanlashlari mumkin. Kafedrada talabalarga yordam berish maqsadida har bir TMI shaklini amalga oshirish bo'yicha yo'riqnoma (ushlubiy tavsiya)lar ishlab chiqilgan. TMI ni baholashning ob'ektivligini maksimal darajada oshirish uchun o'quv dasturida tavsiflangan (har bir TMI uchun 100 ball) baholash bali mezonlari ishlab chiqilgan. TMI (vaziyatli topshiriqlar, tashxislash algoritmlari, davolash chizmalari va boshqalar) ni topshirish muddati mavzuyi reja bo'yicha (mavzu tahlil qilingan kuni) amalga oshiriladi. TMI topshirmagan talaba JN bo'yicha kreditni to'liq o'zlashtirmagan deb hisoblanadi.

O'quv jurnaliga TMI bandida baholash bali quyidagi tartibda qo'yiladi: suratda olingan ball, maxrajda esa topshirilgan mustaqil ish mavzusining raqami kiritiladi.

Xavfli tizim buyicha baholash	Soni ekvivalent	Ball	An'naviy tizim buyicha baholash
A	5	100	A'lo
		90-94	
V	4	85-89,9	Yaxshi
		80-84	
		75-79	
C		70-74	

D	3	65-69,9	Qoniqarli
E		60-64	
FX	2	55-59,9	Qoniqarsiz
F		50-54	
		0-49	

YAKUNIY NAZORAT (YaN)

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan va ONni topshirgan talaba YaNga kiritiladi. YaN modul yakunida OSKI + test shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi. OSKida 8 stantsiya, ulardan 7 ta savol va 1 ta amaliy ko'nikma beriladi. Har bir savolga 12 balldan, amaliy ko'nikmalarga - 16 ball beriladi. Maksimal ball 100, o'tish bali 60 ball. YaNda saralash bali (60) yig'a olmagan talaba YaNdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda to'liq kreditni yig'gan va ONdan o'tgan bo'lsa ham).

Talim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga qoldiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'qitilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

Masofaviy ta'lim mobaynida Yakuniy va oralik nazorat onlayn test tarzida o'tkazilishi mumkin.

IX. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

9.1. Asosiy adabiyotlar

- 1) Akbarov A.N., Xabilov N.L., Arslanov O.U., Usmonov F.K., Ziyadullaeva N.S. Olinmaydigan tishlar bilan protezlash, Darslik. Toshkent, 2018 y.
- 2) Akbarov A.N., Xabilov N.L., Arslanov O.U., Usmonov F.K., Ziyadullaeva N.S. Protezirovaniye nes'emnami zubnimi protezami, Uchebnik. Toshkent. 2018 g.
- 3) Irsaliev X.I., Raxmonov X.Sh., Xabilov N.L., Safarov M.T., Raxmatullaev F.T. Ortopedik stomatologiya propedevtikasi, Darslik. Toshkent. 2006 y.
- 4) Irsaliev X.I., Nigmatov R.N., Xabilov N.L. Ortopedik stomatologiya, Darslik. Toshkent. 2011 y.

9.2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Paraskovich V.L. Dentalnaya implantologiya, Uchebnoe posobie. Kazan. 2006 g.
2. Herbert Shillingburg. Fundamentals of Fixed Prosthodontics. USA. 2012 u.
3. Abolmasov N.G., Abolmasov N.N., Bichkov V.A., Al-Xakim A. Ortopedicheskaya stomatologiya, Uchebnik. Moskva. 2011 g.
4. Gyurel G. Keramicheskie viniri. Moskva. Azbuka stomatologa, 2007.
5. Julev E.N. Klinika, diagnostika i ortopedicheskoe lechenie zabolevaniy parodontita. Uchebnoe posobie. N. Novgorod. 2003.
6. Iordanishvili A.K. Klinicheskaya ortopedicheskaya stomatologiya. Uchebnik. Moskva. 2007.
7. Lebedenko I.Yu., Erigeva V.V., Markova B.P. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po ortopedicheskoy stomatologii. - Moskva. 2007.
8. Lebedenko I.Yu., Ibragimov T.I., Ryaxovskiy A.N. Funktsionalnie i apparatnie metodi issledovaniya v ortopedicheskoy stomatologii. Uchebnoe posobie. Moskva. 2003.
9. Lebedenko I.Yu., Kalamkarova S.X. Ortopedicheskaya stomatologiya: algoritmi diagnostiki i lecheniya. Uchebnoe posobie. Moskva. 2008.
10. A.I. Abduraxmanov, O.R. Kurbanov. Materiali i texnologii v ortopedicheskoy stomatologii. Uchebnoe posobie. Moskva. 2008.
11. I.V. Aristarxov. Ortopedicheskaya stomatologiya. Uchebnik. Moskva. 2006.
12. E.N. Julev, N.V. Kuryakina, N.E. Mitin. Ortopedicheskaya stomatologiya. Fantomniy kurs. Moskva. 2011.

13. X. A. Kalamkarov. Izbrannie lektsii po ortopedicheskoy stomatologii. Moskva. 2007.

14. Lektsii po ortopedicheskoy stomatologii. Pod redaksiyey T.I. Ibragimova. Moskva. 2010.

15. Ortopedicheskaya stomatologiya. Pod redaksiyey V.N. Kopeykina, M.Z. Mirgazizova. Moskva. 2001.

16. V.N. Trezubov i dr. Ortopedicheskaya stomatologiya. Moskva. 2010.

17. V.N. Trezubov i dr. Ortopedicheskaya stomatologiya. Prikladnoe materialovedenie. Uchebnik. Moskva. 2014.

18. V.N. Trezubov, A.S. Sherbakov, L.M. Mishnev. Ortopedicheskaya stomatologiya. Propedevtika i osnovi chastnogo kursa. Uchebnik. Moskva. 2014.

5.3. Internet saytlari

1. <http://www.ziyonet.uz>
2. <http://www.edu.uz>
3. <http://www.pedagog.uz>
4. <http://www.tdsi.uz>
5. <http://www.lex.uz>
6. <http://www.dental.md>
7. <http://www.stomatolog.ru>
8. <http://www.newdent.ru>
9. <http://www.dentist.ru>
10. <http://www.dentoday.ru>

Toshkent davlat tibbiyot universitetida ishlab chiqilgan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor _____

Universitet ilmiy kengashi bannomasi № _____ 2025y.

Fan uchun mas'ullar:

A.N. Akbarov – TDTU, "Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrasini" mudiri, tibbiyot fanlari doktori, professor.

N.S. Ziyadullaeva – TDTU "Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrasini" professori, tibbiyot fanlari doktori, dotsent

N.R. Nigmatova – TDTU "Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrasini" dotsent, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Taqritchilar:

Alimedov A.A. - SamDTU Ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrasini mudiri, DSc, dotsent

Aliyeva N.M. - TDTU Ortopedik stomatologiya propedevtikasi kafedrasini dotsenti

/O'quv - uslubiy departament 